# Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida “Uzbekistan Airways” AJda Airbus konserni vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi

**2024 1 May**

Bugun, 1-may kuni aviakompaniya rahbariyati Airbus konsernining Yevropa mintaqasidagi Prezidenti Yoxan Pelisye va Airbus International konsernining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi Vitse-prezidenti Jag Garrig bilan ishchi uchrashuv o‘tkazdi.



Uchrashuv davomida muvaffaqiyatli munosabatlar, Oʻzbekiston Respublikasi milliy aviatashuvchisi aviaparkini kengaytirish imkoniyatlari, shuningdek, Uzbekistan Airways xodimlarni oʻqitish va havo kemalarini texnik taʼminoti boʻyicha hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Tomonlar xavfsiz aviaqatnovlarni yaratish maqsadiga va ikki kompaniya oʻrtasida yuqori darajadagi hamkorlikni davom ettirish zarurligini taʼkidladilar. Tadbir doirasida mehmonlar Uzbekistan Airways Parvozlarni boshqarish markaziga tashrif buyurishdi.

